MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI MEBEL VA JIHOZLARINI SANITAR -GIGIYENIK TEKSHIRISH

Elmurodova Lenara Xudayberdi qizi - assistent
Samarqand davlat tibbiyot universiteti (Samarqand, O'zbekiston)

Tadqiqot maqsadi: *Sizga taqdim etilayotgan maqolaning asosiy maqsadi shundan iboratki, bog'chada tarbiyalanayotgan yosh avlodning sog'lom va har taraflama yetuk bolalar qatoriga kirishi uchun ba'zi masalalar ko'rib chiqilgan. Bolalar gigiyenik talablarga rioya qilingan MTTlarda albatta tarbiyalanishga haqli. To'g'ri tanlangan mebel bolaning to'g'ri holatda o'tirishi,sog'lom rivojlanishi va kasalliklarni oldini olishga xizmat qiladi. MTTda foydalaniladigan mebellardan foydalanishda, uning konstruksiyasi yuzasidagi elementlarning barcha qatlamlari, shu jumladan gruntlar, laklar, bo'yoqlar, emallar, polimerlar, yog'och qoplamalar, qog'oz qatlamli plastiklar, plyonkalar, matolar, metallar, mineral asosli materiallar va boshqa shunga o'xshash moddalardan tayyorlanishi kerak. Maktabgacha ta'lim tashlilotlarida mebellar har tomonlama ekologik xavfsiz, qulaylik va ergonomikasi to'g'ri bo'lishi kerak va gigiyenik jihatdan normada bo'lishi kerakligini ko'rib chiqdik.*

Materiallar va usullar: *Ushbu maqolada materialar Samarqand Shahar SEO va JSB ma'lumotlariga asosan olindi va 64-MTM jihozlanishini tahlil qilinib standatr bo'yicha bolalarga mos kelishi o'rganilib chiqildi.*

Xulosa: *Olib borilgan tadqiqit natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki , Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining jihozlari sanitar-gigiyenik talablarga javob berishi bolalarning sog'lom o'sishi va rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini 64-sonli MTT misolida ko'rib chiqdik. Shunday qilib, MTT binolarning joylashuvi ,ichki jihozlanishi ,sanitar-gigiyenik talablarga rioya qilinishi , oziqlanish va shaxsiy gigiyena sharoitlari gigiyena qoidalariga mos kelishi va to'g'ri gigiyenik sharoitlarni yaratish bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini ta'minlash chora-tadbirlari o'rganilib tahlil qilib chiqildi.*

Kalit so'zlar: *Maktabgacha ta'lim tashliloti, mebel, jihoz ,sanitar normalar, SEO va JSB, taxlil qilish.*

САНИТАРНО-ГИГИЕНИЧЕСКОЕ ОБСЛЕДОВАНИЕ МЕБЕЛИ И ОБОРУДОВАНИЯ

Элмуродова Ленара Худайбердиевна - ассистент
Самаркандский государственный медицинский университет (Самарканд, Узбекистан)

Цель исследования: *целью настоящего исследования является соблюдение гигиенических требований в дошкольных образовательных организациях. Правильно подобранная мебель служит для того, чтобы ребенок мог сидеть в правильном положении, развиваться здоровым образом и предотвращать болезни. Независимо от способа использования мебели, все слои элементов на поверхности ее конструкции должны быть изготовлены из грунтов, лаков, красок, эмалей, полимеров, деревянных покрытий, бумажно-слоистых пластиков, пленок, тканей, металлов, материалов на минеральной основе и других подобных веществ. Мебель в дошкольных организациях должна быть экологически безопасной, удобной и правильной по эргономике.*

Материалы и методы: *в данной статье материалы были получены на основе данных SEO и JSB города Самарканда, а также проведен анализ оборудования 64-го МТМ.*

Вывод: *В результате проведенного исследования выяснилось , что гигиеническое соответствие дошкольных образовательных организаций имеет важное значение для здорового роста и развития детей, рассмотрено на примере МТТ № 64. Таким образом ,было изучено и проанализировано расположение ,внутреннее оснащение помещений МТТ , соблюдение санитарных норм, соблюдение правил питания и личной гигиены и создание надлежащих гигиенических условий, меры по обеспечению физического и психического здоровья детей.*

Ключевые слова: *ДОУ, мебель, оборудование, санитарные нормы, СЕО и АББ, анализ.*

SANITARY HYGIENIC INSPECTION OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS ON FURNITURE AND EQUIPMENT

Elmurodova Lenara Xudayberdi qizi - assistant
Samarkand State Medical University (Samarkand, Uzbekistan)

Purpose of the work: *The purpose of this study is to comply with hygienic requirements for children to be healthy and biased perfect in preschool education programs kerak.To the furniture chosen in the cave serves to keep the child in the right position,develop healthily and prevent diseases. Regardless of the method of using furniture, all layers of elements on the surface of its construction must be made of materials, including grunts, varnishes, paints, enamels, polymers, wood coatings, paper-layered plastics, films, fabrics, metals, mineral-based materials and other*

similar substances. Furniture in preschool apartments should be environmentally friendly, comfort and ergonomics are correct.

Research materials: *In this article, the materials were taken based on data from Samarkand City SEO and JSB, and the 64th MTM was analyzed and studied to be suitable for children on standatr.*

Conclusion: *As a result of the research carried out, it became known that we examined on the example of MTT No. 64 that the compliance of preschool educational organizations with hygienic requirements is important for the healthy growth and development of children. Thus, the MTT was studied and analyzed measures to ensure the physical and mental health of children, the location of buildings, internal equipment, compliance with sanitary standards, compliance with the rules of hygiene of nutritional and personal hygiene conditions and the creation of proper hygienic conditions.*

Key words: *Preschool education, furniture, equipment, sanitary standards, SEO and JSB, analysis.*

Mavzuning dolzarbliligi: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini quyidagi jihozlar bo'lishi kerak: bolalar stollari, stullar, krovatlar, o'yinchoqlar uchun shkaflar, qo'llanmalar va kanselyariya mahsulotlari uchun shkaflar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, uxlash xonasi, yuvinish xonasi o'yin o'ynash xonasi, mashg'ulotlar o'tkaziladigan xonalar va ovqatlanish xonalari uchun mo'ljallangan mebellar bilan jihozlanishi lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yasli guruhlarining guruh xonalari to'rtburchak shakldagi manejlar, bolalar sirg'anchiqlari, o'rta va katta guruhlarning guruh xonalari stollar, stullar, divanlar bilan jihozlanishi, shuningdek xonaga o'yinchoqlar uchun shkaflar, ich kiyim va choyshablar uchun javonlar hamda bolalarni parvarishlash uchun zarur predmetlar saqlanadigan qutilar pardoz stoli o'rnatilishi kerak. Yasli guruhdagi bolalar o'rnidan tura boshlagan va tayanch (ma'lum bir jismga suyanib turadigan) bilan harakatlanadigan bolalar uchun xonada guruh manejlari (uzunligi 6 m, kengligi 5 m, balandligi 0,45 m) bo'lishi kerak. Ta'lim tashkilotlarining uchun mebellar guruhi va funksional o'lchamlari, shuningdek mexanik, kimyoviy, yong'in va texnika xavfsizligiga qo'yiladigan talablar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyundagi 345-son "O'quv asbob-uskunalari va anjomlarining xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida"gi qaroriga muvofiq belgilanadi. Mebellardan foydalanish usulidan qat'i nazar, uning konstruksiyasi yuzasidagi elementlarning barcha qatlamlari, shu jumladan gruntlar, laklar, emallar, polimerlar, yog'och qoplamalar, qog'oz qatlamli plastiklar, plyonkalar, bo'yoqlar, metallar, mineral asosli materiallar va boshqa shunga o'xshash moddalar to'g'ri tanlanishi kerak.

Adabiyotlar tahlili va metod: Ushbu maqolada materialar Samarqand Shahar SEO va JSB ma'lumotlariga asosan olindi va 64-MTM jihozlanishini tahlil qilinib standatr bo'yicha bolalarga mos kelishi o'rganilib chiqildi.Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini mebel , o'yinchoqlar, jihozlar va boshqa texnik vositalar bilan jihozlash me'yorlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qo'shma qarorida nazarda tutilgan tartiblarda belgilangan me'yorlar asosida jihozlanishi va ushbu talablarda nazarda tutilgan zarur metodik hamda texnik vositalarga ega bo'lishi zarur. Sifatli ta'lim-tarbiya berish uchun har bir ta'lim tashkiloti zaruriy jihozlarga ega bo'lishi zarur.Agar bunday bo'lmasa ta'lim maskanlari faqatgina bolalarni vaqtincha ushlab turuvchi joyga aylanadi. Bu esa bog'chalarda xizmatlarining sifat darajasini pasayishiga olib keladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat ko'rsatayotgan har bir guruh xonasining maydonini quyidagi hududlarga "faollik hududlari"ga ajratish quyidagi tartibda amalga oshiriladi (stol, javon, taxmonchalar shaklida jihozlanishi mumkin): amaliyotda tajriba o'tkazish; sensor rivojlanish; nutq o'stirish, savod va o'qishga tayyorlash va o'rgatish; matematika; teatr va dramatizatsiya; voqeband o'yin; stol usti o'yinlari; ijodiy ustaxona va badiiy qo'l mehnati; loyihalashtirish va qurish-yasash; badiiy adabiyot; jismoniy tarbiya; jonli tabiat va ekologiya burchagi; dam olish (holi qolish) hududi va boshqalar. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarni qabul qilish xonasi, guruh xonalari, musiqa zali, yotoqxonalar, kompyuter xonalari, psixolog-logoped va ma'muriyat xonalari mebel, jihoz, o'yinchoqlar, asbob, ko'rgazmali hamda texnika vositalarining yo'riqnomali saqlanishini ta'minlaydi.

Muhokama: Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun mebellarni ishlab chiqarishda ularning saqlash muddati hamda sifat ko'rsatkichlari hisobga olinishi kerak. Ikki qavatli krovatlarni tayyorlashda quyidagi talablarga rioya qilish lozim: krovatlarning yerdan 800 mm va undan yuqori balandlikda joylashgan va to'rt tomondan to'siq bilan o'ralgan bo'lishi kerak o'siqning ustki qirrasi va krovatning ustki yuzasi orasidagi masofa kamida 260 mm, to'siqning yuqori qirrasi va to'shakning yuqori yuzasi o'rtasidagi masofa 160 mm bo'lishi; krovat va to'siqning pastki yuzasi orasidagi yoki to'siqning alohida gorizontal yoke vertikal elementlari orasidagi tirqish 60 mmdan 100 mmgacha bo'lishi; Ikki qavatli krovatlar narvon bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Narvon krovat konstruksiyasining ajralmas qismi bo'lib, narvon zinapoyalari orasidagi masofa 200 — 300 mm bo'lishi kerak. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun mebel ishlab chiqarishda ishlatiladigan materiallar mikroflora (ayniqsa, patogen) o'sishi – rivojlanishi va ko'payishiga yo'l qo'ymaydigan, oson tozalanadigan xomashyodan tayyorlanishi kerak. Ishlab chiqarish korxonalarida mebel mahsulotlaridan chiqadigan o'ziga xos hid 2 balldan oshmasligi kerak. Korpusli mebellarni ishlab chiqarishda ularning mustahkamlik darajasiga qo'yiladigan gigiyena

talablari mazkur sanitariya qoidalarining bandiga muofiq belgilanadi.

Natijalar: 64-Sonli MTT ni taxlil qilganimizda quyidagilarni ko'rib chiqdik: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ta'lim olishi, o'yin jarayonini tashkillashtirish, tajribalar o'tkazish, mustaqil faoliyatni tashkil qilishlari, kun davomida turli tashkiliy ishlar (ovqatlanish, mehnat, dam olishlari) uchun guruh xonasida yetarli joy yo'qli aniqlandi. Mashg'ulotlar o'tkazish jarayonida ishlatiladigan ko'rgazmali qurollar va jihozlari bolalar bemalol foydalanishlari uchun qulay joylashtirilmagan. Ko'rgazmali qurollar va rivojlantiruvchi o'yinlar, ko'rgazmali qurollar quyidagi talablarga javob berishi lozim:Maktabgacha ta'limning zamonaviy pedagogik texnologiyalari va texnika vositalaridan jarayonida unumli foydalanishni tashkil etish lozim. Mavjud jihozlardan samarali foydalanish va ularni saqlash holatini ta'lim tashkilotining pedagogik va kuzatuv kengashlari majlisida har yili kamida bir marta atroflicha muhokama qilish va samarali foydalanish bo'yicha berilgan takliflarni inobatga olish kerak. Guruh xonalari jihozlaridan maqsadli foydalanish va ularning saqlanishini samarali tashkil etish yuzasidan tashkilot miqyosida ko'rik-tanlovlar tashkil etish zarur. Guruh xonasiga mas'ul shaxsning jihozlanishi anjom va o'yinchoqlardan samarali foydalanish holati o'rganilib, ijobiy natijalarga erishganlarni rag'batlantirish masalasi ta'lim tashkilot rahbariyati tomonidan ko'rib chiqilib, yil yakuniy bo'yicha moddiy va ma'naviy rag'batlantirish choralarini ko'rish lozim. Turli sabablarga ko'ra xato va kamchiliklarga yo'l qo'yib, mebel va jihozlarning ishlash muddatlarini qisqarishiga, qismlarini ishdan chiqishga, yaroqsiz holatga olib kelgan shaxslarga nisbatan o'rnatilgan tartibda intizomiy choralar ko'rish kerak. Guruh xonasidagi tarbiyachi bolalar stollari, stullari, javon va boshqa turdagi jihozlarning qirilishi, chizilishi kabi holatlari va uning tozaligi uchun mas'ul shaxs va ta'lim tashkilotining rahbariyati shaxsan javobgar hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning o'sish va rivojlanishini yaxshilash uchun jihozlanishiga qatiy rioya qilish kerak.

O'tirish va yotoq uchun mo'ljallangan mebellarning toifasiga bog'liq holda yumshoqlik ko'rsatkichlariga qo'yiladigan gigiyena talablari

Mebel elementlarining yumshoqlik toifasi (sinf)	70 daN yuklamasi ostida yumshoq element deformatsiyasi	Yumshoqlik, mm
0	120 mm dan kam emas	2,4 mm dan 4,2 mm gacha
I	95 mm dan 115 mm gacha	1,7 mm dan 2,3 mm gacha
II	70 mm dan 90 mm gacha	1,3 mm dan 1,6 mm gacha
III	50 mm dan 65 mm gacha	0,5 mm dan 1,2 mm gacha
IV	15 mm dan 45 mm gacha	0,2 mm dan 0,4 mm gacha

Xulosa: Olib borilgan tadqiqit natijasida shu Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining sanitar-gigiyenik talablarga javob berishi bolalarning sog'lom o'sishi va rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etishini 64-sonli MTT misolida ko'rib chiqdik. Shunday qilib, MTT binolarning joylashuvi ,ichki jihozlanishi ,sanitariya me'yorlariga rioya qilinishi , oziqlanish va shaxsiy gigiyena sharoitlari sanitar-gigiyenik me'yor qoidalariga mos kelishi va to'g'ri gigiyenik sharoitlarni yaratish MTT tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy salomatligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlari o'rganilib tahlil qilib chiqildi.

ADABIYOTLAR

1. 0057-23-son SanQvaN
2. G.I.Shayxova Bolalar vao'smirlar gigiyenasi
3. In our country prevalence of tuberculosis
4. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning ovqatlanish tartibi. Farzandlarimizning kunlik ratsioni
5. Xusinova S. A., Xakimova L. R. Bolalarda urolitiazni epidemiologiyasini o'rganish (adabiyotlar sharhi) //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 10. – C. 111-121.
6. Tuxtarov B. E., Elmurodova L. X. Q. O'zbekistonda teri leyshmaniozining tarqalishi va uning oldini olish chora-tadbirlari //Scientific progress. – 2023. – T. 4. – №. 2. – C. 42-48.
7. Musayeva O. T., qizi Elmurodova L. X., Khalilova B. R. Hygienic requirements for children's toys //World of Scientific news in Science. – 2024. – T. 2. – №. 3. – C. 152-159.